



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 14-mart

123-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmoni ijrosi haqida”gi 117-6-0-Q/25-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-maydagi “Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig‘ilishi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-179-son qarorini amalga oshirilishini ta‘minlash, maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatini yanada takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-martdagi 117-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-martdagi 117-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmoni bilan:

2025-yilda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgilanganligi:

(a) maxsus iqtisodiy zonalarda 2,3 milliard AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalarni o‘zlashtirish, eksport hajmini 1 milliard AQSH dollariga yetkazish, ishlab chiqarish hajmini 4,3 milliard AQSH dollariga teng miqdorda ta‘minlash va 12 mingta yangi doimiy ish o‘rinlarini yaratish;

(b) sanoat zonalarida 800 million AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalarni o‘zlashtirish, eksport hajmini 512,2 million AQSH dollariga yetkazish, ishlab chiqarish

hajmini 1,8 milliard AQSH dollariga teng miqdorda ta'minlash va 17 mingta yangi doimiy ish o'rinlarini yaratish;

yangi barpo etiladigan ixtisoslashtirilgan zonalar faqat maxsus iqtisodiy zona yoki sanoat zonasi shaklida tashkil etilishi belgilanganligi;

belgilanishicha, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati bo'yicha:

(a) belgilangan chegaralarga ega hamda maxsus huquqiy, soliq va bojxona rejimi joriy qilinishi mumkin bo'lgan yer maydonida eksportbop, yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish uchun tashkil etiladi;

(b) faqat eksportga yo'naltirilgan loyihalarga ixtisoslashgan, maydoni o'ralgan maxsus eksport zonasi turida ham tashkil etilishi mumkin;

(v) yer uchastkalari Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi (keyingi o'rinlarda Hukumat komissiyasi) tomonidan eng yaxshi taklifni tanlab olish yo'li bilan Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan to'g'ridan-to'g'ri ijaraga beriladi (turizm, xususiy boshqaruvdagi zonalar va qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno);

(g) yer uchastkasiga ijara huquqi qiymati baholovchi tashkilot tomonidan aniqlangan bozor qiymatiga nisbatan koeffitsiyentlarda belgilanadi;

(d) yer uchastkalarini onlayn-auksionda sotish orqali zonalar rezidentlariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni joylashtirishga (imtiyozlar tatbiq etilmagan holda) ruxsat beriladi;

(y) faoliyat ko'rsatish muddatiga oid cheklovlar bekor qilinadi.

belgilanishicha, sanoat zonalarini faoliyati bo'yicha:

(a) sanoat, ishlab chiqarish korxonalarini bir joyda joylashtirish, infratuzilma obyektlaridan oqilona foydalanish, aholini ish bilan ta'minlash maqsadida tashkil etiladi;

(b) master reja asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari qarori bilan barpo etiladi;

(v) yer uchastkalari, bino va inshootlarni investitsiya majburiyatlari va muddatlarini belgilagan holda onlayn auksionga chiqarish sanoat zonasi direksiya tomonidan amalga oshiriladi;

(g) onlayn auksionda faqat yuridik shaxslar qatnashishi mumkin;

(d) yer uchastkalari onlayn auksionga kamida 10 yil ijara muddati bilan, investitsiya majburiyatlari bajarilgandan so'ng xususiylashtirish yoki ijara muddatini uzaytirish sharti bilan chiqariladi;

(y) yer uchastkalarining boshlang'ich ijara qiymati o'rnatilgan tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan yer solig'idan past bo'lmagan miqdorda belgilanadi;

(j) ijaradan tushgan mablag'lar sanoat zonasi direksiyasiga bosh rejani ishlab chiqish, infratuzilma va moddiy-texnik bazani yaxshilash, obodonlashtirish, bino va inshootlarni ta'mirlash, xodimlar mehnatiga haq to'lash va rag'batlantirish uchun yo'naltirilishi;

belgilab qo'yilishicha:

(a) respublika ma'muriy-hududiy birliklariga maxsus iqtisodiy zona maqomini berishga yo'l qo'yilmaydi;

(b) yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonolari faqat infratuzilma mavjud bo'lgan yoki u bilan ta'minlash iqtisodiy asoslangan, moliyaviy samaradorligi hisoblangan biznes reja va master reja asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarda Hukumat komissiyasi bilan kelishilgan holda tashkil etiladi;

(v) maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarida tadbirkorlar tomonidan o'z hisobidan ishlab chiqarish binolarini qurish hamda ijaraga berish yoki sanoat ipotekasi va bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotish ushbu zonalaridagi bino va inshootlarni ijaraga berish va sotishda loyihalarga qo'yiladigan mezonlar belgilangan holda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi;

(g) maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarida faoliyatini yangidan boshlayotgan investorlarga yer uchastkalari qirq to'qqiz yilgacha muddatga ijaraga berilishi mumkin;

(d) ishtirokchini tanlab olish to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin olti oy davomida u investitsiya majburiyatini (uzrli bo'lmagan sabablarga ko'ra) bajarishni boshlamagan taqdirda ijara shartnomasi bekor qilinadi hamda bino, inshootlar va yer uchastkalari direksiyalar balansiga qaytarilishi;

Maxsus iqtisodiy zonalar boshqaruvi quyidagicha tashkil etilganligi:

(a) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi maxsus iqtisodiy zonalarini boshqarish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi (turizmga ixtisoslashgan, xususiyl boshqaruvdagi maxsus iqtisodiy zonalar va qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno);

(b) xususiyl boshqaruvga berilgan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan muvofiqlashtirilishi;

Sanoat zonolari boshqaruvi quyidagicha tashkil etilganligi:

(a) mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan boshqariladi;

(b) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan ularning faoliyati muvofiqlashtirilishi;

belgilanishicha, maxsus iqtisodiy va sanoat zonolari xususiyl, shu jumladan, xorijiy investorlar boshqaruviga quyidagi tartibda berilishi mumkin:

(a) xususiyl investorlar boshqaruvga tanlov asosida zarur infratuzilmani qurish, investitsiya majburiyatlarini bajarish sharti bilan jalb etiladi;

(b) maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat zonalarini xususiy (xorijiy) investorlarga boshqaruvga berish va ularga yer ajratish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda vazirlik va idoralar takliflariga asosan Hukumat komissiyasi bilan kelishgan holda bitim bilan o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi;

(v) investorlarga boshqaruvga ijara huquqi asosida ajratilgan yer maydonlarini lotlarga ajratgan holda ijara muddatidan ko‘p bo‘lmagan muddatga investitsiya bitimida kelishilgan shart va mezonlar asosida ikkilamchi ijaraga berishga ruxsat berilganligi;

Namangan viloyatida “Namangan” maxsus eksport zonasi (keyingi o‘rinlarda – “Namangan” MEZ) tashkil etilganligi;

belgilab qo‘yilishicha:

(a) “Namangan” MEZ ishtirokchilari tomonidan chetdan olib kiriladigan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirilishi. Bunda ushbu hududga joylashtirilgan tovarlar bojxona to‘lovlarini to‘lash va iqtisodiy siyosat choralari qo‘llash maqsadida bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi;

(b) “Namangan” MEZda ishlab chiqarish binolari ko‘p qavatli (3-4 qavat) qilib quriladi, bunda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi ma’qullagan xalqaro meyorlardan foydalanishga ruxsat etiladi;

(v) “Namangan” MEZ ishtirokchilariga respublika korxonalari tomonidan yetkazib berilgan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar, ko‘rsatilgan xizmatlar eksportga tenglashtiriladi. Bunda “Namangan” MEZ ishtirokchilari tomonidan ichki bozorga sotilgan tovarlar importga tenglashtirilib, tegishli bojxona va soliq to‘lovlari undirilishi;

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari uchun qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar belgilangan muddatga qadar saqlab qolinishi;

quyidagilar:

(a) Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 1-ildovaga muvofiq;

(b) Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarining maqbullashtirilayotgan hududlari va yer maydonlari ro‘yxati 2-ildovaga muvofiq;

(v) Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarining hududidan chiqarilayotgan yer maydonlari ro‘yxati 3-ildovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJga infratuzilma obyektlarini qurish loyihalarini “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUKdan ekspertizadan o‘tkazgan holda tizim tashkilotlari tomonidan amalga oshirishga ruxsat berilganligi;

“Namangan” MEZ faoliyatini samarali tashkil etish, shu jumladan, vazirlik va idoralar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun mas’ul etib Savdo-sanoat palatasi raisi D.A.Vaxobov belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-martdagi 117-6-0-Q/25-sonli qarori bilan:

Viloyat hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari, manfaatdor boshqarma, idora va tashkilotlar hamda Namangan shahar va tumanlar hokimlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF-41-son qarorining 1-ilovasidagi "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish chora-tadbirlari bo'yicha "Yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan topshiriqlarni o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlashlari;

Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Rasulov) manfaatdor boshqarma va idoralar, Namangan shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etish vazifasi yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov hamda tuman hokimining o'rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov